

UDK 808.5:811.512.161

MULOQOTDA TIL VA MADANIYATNING O‘ZARO BEVOSITA VA BILVOSITA BOG’LIQLIGI HAQIDA



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-25-50-54>

Imamova Xolida Kamalovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Roman-german tillari kafedrasi dotsenti, PhD.

imamova.h68@gmail.com / imam_muhammad@mail.ru,

ORCID ID: 0000-0002-3438-5514 .Tel.: 93 546 24 11

Annotatsiya: Tadqiqotda turk tili muloqot madaniyatida ‘qahva’ning tutgan o‘rni va qo‘llanilish uslubi haqida so‘z boradi. Muloqot munosabatidagi lisoniy va nolisoniy vositalarning voqelik fonida aks etishidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: turk tili, muloqot, madaniyat, qahva, lisoniy, nolisoniy.

Abstract: The study discusses the role and usage of ‘coffee’ in the Turkish language communication culture. The importance of linguistic and non-linguistic means in communication in the context of reality is revealed.

Keywords: Turkish language, communication, culture, coffee, linguistic, non-linguistic.

Keyingi yillarda yaratilgan ijtimoiy sohalarda, jumladan, tilshunoslikka doir tadqiqotlar inson manfaati, qiziqishi, ruhiyati, yashash tarzi, urf-odati, madaniyati, tafakkur mahsuli bilan bog‘liq masalalar tadqiqiga bag‘ishlanmoqda.

Bugungi konferensiyamiz mavzusi – ‘*Til va madaniyat*’ ekan bu ikki hodisa jamiyatni bir butun qiluvchi ikki qutb desak mubolag’a bo‘lmaydi.

Tilshunoslikning predmeti bo‘lgan *til* haqida juda ko‘p tariflar berilgan. “Til fikrni ifoda qilishga mo‘ljallangan, talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir”, kabi fikrlar mavjud [Ирискулов М.: 1992, 6 б.].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ‘*til*’ning so‘z maqolasida sakkiz ma’nosi haqida qayd etiladi. Shundan: 4) nutqning o‘ziga xos xususiyatlari va ifoda vositalari bilan ajtalib turadigan bir turi, stil, uslup; 5) fikr ifodalash va o‘zaro aloqa jarayonida yuzaga keladigan ibora, gap, so‘z, nutq – deya qayd etilgan fikrlar mavzumiz uchun muhim [ЎТНЛ-Т., 2005, 94 б.].

O'zbek tilining izohli lug'atida '*madaniyat*' so'ziga berilgan so'z maqolasida – Jamiyatning ishlab chiqarishda, ijtimoiy madaniy-ma'rifiy hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlar majmuasi, – deb qayd etiladi [*ЎТЎЛ-М., 2005.-521 б.*].

"Inson o'zini til orqali biladi, o'rganadi, o'zlashtiradi. Tildan tashqarida inson yo'q, insonlardan tashqarida til ham yo'q. Faylasuflar va tilshunoslar tilning o'zi falsafa yoki til falsafaning o'zi, deydilar. Ammo shu narsani ko'zda tutish kerakki, falsafa butun borliqni to'la ravishda qamrab olgan holda, til esa bu borliqni til egasi bilim doirasida va imkoniyatlari darajasidagina in'ikos ettiradi, ya'ni muayyan tilni falsafaga tenglashtirib bo'lmaydi. Biz bilgan olam tilimiz orqali ifodalangan olamdan iborat" [Хоназаров Қ., 2009, 13 б.].

Inson voqelik, borliq, narsa-hodisa haqidagi hukmlarini matn ko'rinishida namoyon etadi. Shu tufayli matnda borliqqa xos bo'lgan nolisoniy xususiyatlar va ularning bevosita in'ikosi bo'lgan lisoniy imkoniyatlar o'z ifodasini topadi. Shunga ko'ra turk tilidan quyidagi matnni misol sifatida keltiramiz: Su ve Kahve:

Misafirlere kahve fincanı su bardağıyla birlikte sunulurdu. Eğer misafir kahveden önce suyu içerse, aç olduğu anlaşılır ve ona yemek hazırlanırdı. Eğer kahveyi sudan önce içerse, tok olduğu anlamına gelirdi [<https://www.rapordergisi.com/kose-yazarlari/berin-diken/en-guzel-bes-osmanli-gelenegi>] *Tarjimasi*: Suv va qahva: Mehmonlarga finjonda qahva va stakanda suv bir vaqtda keltirilar edi. Agar mehmon qahvadan avval suvni ichsa, och ekanligini bilishgan va unga taom tayyorlangan. Agar qahvani suvdan oldin ichsa, mehmonning to'q ekanligi ma'nosi anglashilgan. Ushbu matnda ikki muloqotchi ishtirok etmoqda: *mehmon* va *mezbon*. Voqeaning fonida yuz berayotgan jarayonda ular o'zaro lisoniy vositalarsiz bir-birini yaxshi tushunadi.

Ijtimoiy munosabatlar, nolisoniy faoliyat, muloqot vaziyati, milliy-madaniy qadriyatlarga uyg'un ravishda namoyon bo'ladi. Inson kamoloti ijtimoiy muhit, milliy qadriyatlar, dunyoqarash, tafakkur mahsulidir. Ijtimoiy borliqning tildagi ifodasini bevosita inson omili, manfaatlari, sotsial turmushi, psixikasi nuqtai nazaridan o'rganish til va jamiyat, til va tafakkur, til va madaniyat munosabatlarini tadqiq qilishda ahamiyatlidir.

Tadqiqotimiz mavzusi bo'lgan til va madaniyat inson omili, matn ifodasi va idroki bilan aloqadordir. Qadimgi turkiy xalqlarning ovqatlanish madaniyati va taom bilan bog'liq tushunchalari, qarashlari oradan o'tgan uzoq vaqtga qaramasdan hali hanuz o'zgarmay kelmoqda. Bugungi kunimizda ham Turkiyada mehmonga *turk kahvasi suv bilan* birga beriladi.

Taom va ovqatlanish bilan bog'liq madaniyat, an'analar hurmat va ehtirom ko'rsatish kabi harakatlar bilan yonma-yon aks etadi. Yuqorida keltirilgan

harakatlarda mehmonga nisbatan ko'rsatiladigan hurmat bildirish madaniyatining eng yuksak namunasi aks etadi.

Rus tilshunosi O.S. Axmanova 'Словарь лингвистических терминов' nomli kitobida 'фоновое знание' terminiga shunday izoh beradi: muloqotning ishtirokchilari bo'lgan so'zlovchi (adresant) va tinglovchi (adresat)ning voqelikni o'zaro anglashidir [Axmanova O.S., 1969, 498 б.]. Yuqoridagi voqea fonida muloqotchilar sanaluvchi *mehmon* va *mezbon* bir-birini yaxshi tushunadi.

O'zbekistonda mehmonga *qahva* o'rniga *choy* beriladi. Qardosh ikki xalqning o'ziga xos farqli jihatiaridan birini mana shu yerda ko'rish mumkin. Lekin bu ikki tildagi ikki xil ichimlik bir nuqtada ma'lum *ozuqa sememasidagi bir semada – risq, nasiba semasida* birlashadi. Ayni paytda o'zbek tilidagi *risq, nasiba sememasi* yana bir qancha *semani* qamrab oladi. Bu *semani* ichida – *tuz* birinchi o'rinda keladi. Turk tilida esa – *kahva risq yoki nasibani* ifodalovchi asosiy komponent. Buni quyidagi maqolda ko'rish mumkin.

O'zbek tilidagi '*Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber*' maqoli mazmuniga mos keluvchi quyidagi maqolda ham mehmondorchilik asosidagi hurmat tushunchasi o'z ifodasini topgan.

'*Bir fincan (acı) kahvenin kırk yıl hatırı(hakki) vardır*'. [Aksoy O.A., 1971, 172 б.] Tarjimasi: "*Bir finjon qahvaning qirq yilga qadar hurmati, xotirasi bo'ladi*". Turk tilida metonimiya asosida qahva orqali ifodalangan "*taom*" tushunchasi o'zbek tilida sinekdoxa usulida "*tuz*" so'zi orqali aks ettiriladi. Qayd etilgan maqollardagi mazmun umumiy bo'lsa-da, muayyan voqelikka ikki xil qarash asosida yondashilgan. Bu maqollarda xalqlarning mental xususiyatlari ham o'z ifodasini topgan. Qahva turk xalqida muhim iste'mol ashyosiga aylangani maqoldan ma'lum bo'ladi. Avval *bir* va *qirq* raqamlariga diqqat qarataylik. *Bir* va *qirq* so'zi semantikasi ko'p qirrali. Shulardan: birda "*oz, kam, yolg'iz, yagona*" ma'nosi; *qirqda* "*ko'p, haddan ziyod*" semalari reallashgan. Turk tilidagi *hatırı var* bilan o'zbek tilidagi *salom bermoq* hurmat ko'rsatish tushunchasini ifodalaydi. Ya'ni, "*seni hurmat qilib oldingga dasturxon yozishgan ekan, bunga javoban hurmat ko'rsatish kerak*" degan mazmun singdirilgan. Maqolning mazmuni xalqning olam manzalarini tasavvur qilishi, dunyoni anglash orqali erishilgan madaniyat bilan uyg'unlashib ketadi.

Zero yuqorida ta'kidlanganidek, *madaniyat* - jamiyatning ishlab chiqarishda, ijtimoiy madaniy-ma'rifiy hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlar majmuasidir. Inson qo'lga kiritgan hayotiy tajribalari asosida fikr va mulohazalarini o'zaro muloqotda nafaqat lisoniy balki nolisoniy vositalar orqali madaniyatning o'ziga xos, takrorlanmas namunalari vositasida ifodalaydi.

Shuning bilan birga xalqning madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan *kahve* = *choy* leksik birliklar yordamida yangi so‘z va so‘z birliklari yasaydi. Xonadondan tashqarida biror restoran yoki milliy taom oshxonalariga *kahvehane* = *choyxona* kabi atamalar ishlatilsa, mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimga *turk: kahve parası* = *bahşış* = o‘zb: *choychaqa* beriladi.

Muloqot xulqi muammosini milliy xarakter – millatning o‘ziga xos urf-odatlar, qadriyat va an‘analarini hisobga olmasdan o‘rganib bo‘lmaydi. “Milliy xarakter deganda, ma’lum ijtimoiy guruh o‘rtasida asrlar mobaynida avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘ziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xarakterga mazkur millat aholisi sig‘inadigan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarzi jiddiy ta’sir ko‘rsatadi va bu ta’sir o‘z-o‘zidan muloqot xulqida namoyon bo‘ladi” [Мўминов С., 2000, 10 б.].

Inson jamiyatda doimiy ravishda muloqotda bo‘ladi. Qadim zamonlardan muloqot jarayonida ruhiyatidagi tuyg‘ularni lingvistik vosita bilan bir qatorda lingvistikaga yondosh vositalar (paralingvistik vositalar) orqali ham ifodalashga alohida e’tibor qaratgan.

Odamlar so‘zlar orqali muloqot qilishni o‘rganganlarida, ular o‘zlarining avvalgi jestlar bilan bog‘liq tilini unitib yubormadi. Muloqotning yangi turi – so‘zlashuv va eshitish – uning eski turi sanalgan – ko‘rsatish va ko‘rish bilan birgalikda bir birini to‘ldirib bordi [Фолсом Ф., 1974, 35 с.].

Ijtimoiy hayotning muhim voqealaridan biri voyaga yetgan yig‘it uylanish niyatini ota-onaga to‘g‘ridan aytmaydi. Bu ham xalqning o‘ziga xos madaniy an‘analaridan biri sanaladi [<https://www.memurlar.net/album/9429>]. Bu odat nafaqat turklarda balki o‘zbeklarda ham mavjud. O‘zbeklarda yig‘it uylanish niyatini otasining oyoq kiyimi ichiga *sabzi solib qo‘yishi* yoki oynaga qarab tez-tez *sochini ko‘p tarashi* bilan bildirishi mumkin. Bugungi kunda yoshu-qari yoki yigit-qiz hamma har kuni oynaga qarab sochini tarab o‘ziga oro berishi oddiy holat sanaladi. Ammo xalq orasida – *sochini tarab qolibdi* – birikmasi ibora tarzida shakllanib ulgurgan.

Xuddi shu holat Turkiyaning turli xududlarida turli shaklda namoyon bo‘lar ekan. Misol uchun, Yozgatda *palovga qoshiqni tik qadash*, Anado‘li mintaqasida dasturxonga *ortiqcha qoshiq qo‘yish*, *sochini ho‘l qilib tarash*, otaning oyoq kiyimini *teskari o‘girib qo‘yish* yoki *ostonaga urish*, otaning *tahorat suviga qalampir solib qo‘yish* [<https://www.memurlar.net/album/9429>] kabi holatlar kuzatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, muloqot madaniyatining turlariga har bir tilda juda ko‘plab va turli-tuman misol keltirish mumkin. Muhimi har qanday muloqot turida xalq, o‘z madaniyatini nafaqat lisoniy vositalar balki nolisoniy

vositalar orqali ham ifodalaydi. Bu ifoda shakllari xalqning urf-odatları, an'analari va madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Советская энциклопедия, 1969. 606 с.
2. Atasözleri ve deyimler sözlüğü I - II. Atasözleri sözlüğü. Aksoy O.A. – İstanbul: İnkılap Yayınevi, 1971. I – 392 b.; 1976 II, 968 b.
3. Ирискулов, М.Т. (1992). *Тилишуносликка кириш*. – Тошкент: Ўқитувчи. 255 б.
4. Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фанлари д-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. 47 б.
5. Фолсом Ф. Книга о языке. – Москва: Прогресс, 1974. 159 с.
6. Хоназаров Қ. Глобаллашув ва тил фалсафаси. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2009. 136 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006.
8. <https://www.rapordergisi.com/kose-yazarlari/berin-diken/en-guzel-bes-osmanli-gelenegi>
9. <https://www.memurlar.net/album/9429>